

## Kumush Razzoqova

### "Yomg'ir"

Visit "[Yomg'ir](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Qiyinaladi oftobni kutib,  
Yomg'irlardan charchagan shahar.  
Uxlab qolding, yig'lab, qon yutib,  
Ko'ringanda ufqda sahar.

Men taqdiridan hech nolamayman,  
Gar almashdi shomga tongimni,  
Olib keldi bu oqshom bilan  
Uzoqlarda qolgan jonimni.

Yomg'ir yog'di mayda-maydalab,  
Mayda-mayda bo'ldi yuragim.  
Tong otguncha qayta-qaytalab,  
"Sevasanmi?" - deya so'radim.

Sen hech narsa qilmading talab,  
Ming o'rgilding qoshu ko'zimdan,  
Sening qora sochlaring silab,  
Shu tun kechdim xatto o'zimdan.

Qiyinaladi oftobni kutib,  
Yomg'irlardan charchagan shahar.  
Sen ketasan qayga, qon yutib,  
Meni qayga boshlaydi sahar?

Visit [Kumush Razzoqova](#) page on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com), to get more lyrics and videos.